

## **BOLA TARBIYASIDA XALQ MAQOLLARDAN FOYDALANISHINIG PEDAGOGIK USULLARI**

**Esemuratova Turganbike Aytmuratovna**

**Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti "Umumiy pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchilari.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maqollarda bola hayotidagi o'rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublari, rag'batlantirish va jazolashga, o'qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar xulq-atvoridagi fazilatlarni meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta'siriga daxldor ta'lim g'oyalari o'z aksini topgan.*

**Kalit so'zlar.** *Maqol, tarbiya, xalq, ota-ona*

Har bir maqolda hamisha «ta'lim ulushi» - ibrat mavjud bo'ladi, maqol tagida ibrat tusidagi aniq ramzni tushuniladi, bu ibrat hayotning turli ko'rinishlarini umumlashtirib, tugal jumla holiga kelgan bo'ladi.

Maqollar mehnatkashlarning ko'plab ma'naviy ehtiyojini qondiradi, ular aqliy bilim, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lishi, odamiylik, ahloqiy fazilatlar va hoqazolarni anglatishi mumkin.

Maqollar qadimiy o'tmish hodisa bo'lmay, xalqning jonli ovozi, xalq bugungi zarur bo'lgan va ertaga asqotadigan narsani xotirasida saqlaydi. Maqolda o'tmish to'g'risida gap ketsa, u hozir va kelajak nuqtai nazaridan baholanadi, hikmatlarda aks etgan o'tmishning xalq orzu-niyatlari, ezgu maqsadlariga qay darajada muvofiqligiga bog'liq ravishda qoralanadi yoki ma'qullanadi.

Maqolni butun xalq yaratadi, shu bois unda jamoatchilik fikri, xalqning hayotga bergan bahosi, xalq zakovatining kuzatishlari o'z ifodasini topadi. Yakka shaxs yaratgan yaxshi hikmat, agar u ko'pchilikning fikrini ifoda etolmasa, maqol bo'la olmaydi. Juda bo'lmaganda, umumxalq fikri va yakka shaxs fikri bir vaqtning o'zida yonma-yon kelishi mumkin, xolos.

Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma'nosini kuchaytiradi.

Maqollar xotiraga mahkam o'rnashadi. So'z o'yinlari, so'zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi, goho shu qadar jozibali bo'ladiki, kishi oson esda saqlab qoladi. Ayni holda she'riyat donolikni, tarbiya va uning hosilasi xulqni ifoda etilish faoliyati tajribasini asrash va targ'ib qilish vazifasini ado etadi.

Maqolning asl vositasi tarbiyadir, ular qadim zamonlardan buyon ta'lim vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, ular ta'lim g'oyasidan iborat, ikkinchi tomondan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ta'lim vazifasini bajaradi, xalq tasavvurlariga mos keluvchi tarbiya ta'sirining vositalari, uslublari tug'risida hikoya qiladi, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholaydi, shaxsning shakllanish maqsadlarini u yoki bu tarzda aniqlab, tarbiyalanishga

chorlaydi, o'zlarining tarbiyachidek qutlug' vazifalarini mensinmaydigan katta yoshdagi odamlarni qoralaydi va hoqazo.

Maqollarning eng keng tarqalgan shakli o'gitdir. Ta'lim nuqtaiy nazaridan o'gitlar uch toifaga bo'linadi:

Bolalar va yoshlarni yaxshi xulqli bo'lishga, shu jumladan, muloyim bo'lishga undaydigan tanbehlar.

Katta yoshdagi odamlarni o'ziga yarashadigan xulqu odobga o'rgatadigan tanbehlar va nihoyat, tarbiya natijalarini aks ettiruvchi, ta'lim maslahatlaridan iborat o'ziga xos nasihatlar. Bu, ayniqsa, ta'lim tajribasini umumlashtirishning o'ziga xos shakli sanaladi.

Maqollarda bolalarning hayotdagi o'rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag'batlantirish va jazolashga, o'qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar xulq-atvoridagi fazilatlarini meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta'siriga daxldor ta'lim g'oyalari o'z aksini topgan va h.k.

Xalq va avlodlarning ta'lim mubohasasida kattayu kichik barcha xalqlar beistisno ishtirok etadi. Bolaning dunyoga kelishi uchun bayram, farzandsiz ikki jonning yashashi dushvor. O'zbek maqollarida bolalar haqidagi yaxshi gaplar ko'n takrorlanadi: «O'g'il bilan qiz - bir juft qizil gul», «O'g'il bilan qiz - uyning mehmoni», «O'g'il bilan qiz - tun bilan kun», «O'qil oftob, qiz mohtob», «Bolalar osmondagi yulduzlar, qorong'u tunni erug' kunduz qiladi», «O'g'li yo'qning o'rni yo'q, qizi yo'qning qadri yo'q».

Bolani har kim ham tug'adi, lekin tarbiya har kimning qo'lidan kelavermaydi. «Tug'ishga tug'ib, tarbiya qilolmaydi» ham ota, ham onaga tegishli bunday tanbehlar har bir xalqda uchraydi.

Xalq tarbiyaning boshlanishi haqida muayyan fikrlarni aytadi: qancha erta boshlasa, shuncha yaxshi. Tarbiyani bola tug'ilishdan boshlagan yaxshi, chunki tarbiya bola tug'ishdan ham muhimroqdir. «Dunyoga keltirgan ota va ona emas, edirib-ichirgan, yaxshi tarbiya bergan ota va ona». Ota bilan ona faqat ota-onagina emas, tug'ilish bu boshlanishi, ota bilan ona eng avvalo tarbiyachilardir, faqat shundagina ular o'z vazifalarini tugal ado etgan hisoblanadilar. «Ona maktabi» otadan ko'ra muhimroqdir: «Otasi yaxshining bittasi yaxshi, onasi yaxshining hammasi yaxshi», «Ona miyasiga quyganni ota sug'urib ololmaydi».

Xalq tafakkurida merosxo'rlik, meros va ota-onalar ta'lim faoliyatining natijalari uzviy bir butunlikda namoyon bo'ladi. «Yaxshi xotinning bolalari ham yaxshi bo'ladi» (rus), «Aql katta bo'lganda kiradi, tarbiya tug'ilgandan boshlanadi» (o'zb), «Yaxshi go'shtning sho'rvasi totli, yaxshi odamning bolasi totli» (qir) va hoqazo. Lekin, bolaning o'z qilmishlari uchun shaxsan mas'ulligi ham inkor etilmaydi: «Ahmoq o'g'ilga ota ham aql bo'lolmaydi», «Ahmoq o'g'ilni ota ham yo'lga sololmaydi».

Maqollarda tarbiyaning qulay va noqulay sharoitlari o'z aksini topgan.

Barcha xalqlarda yosh avlodga tarbiyachi (murabbiy)larni hurmat qilish zarurligi uqtiriladi. Ota-ona obro'siga, ayniqsa, katta e'tibor beriladi: «Ota puli bilan emas, ota aql bilan yashash kerak», «Eskichada ham, yangichada ham ota o'g'ildan qutlug'», «Otalar so'zi aqlning ko'zi». Onani ham mustahkom devorga qiyoslanadi. Ota-onalariga qilgan

muomalalariga qarab bolalar taqdiri bashorat qilinadi: «Otangni xor qilganding, senga ham o`g`lingdan shu qaytadi» (rus). Darvoqe, bu mavzuda bir ertak ham bor, unda eng yaxshi tarbiyachi keksalar ekani tug`risida bir olam maqol aytilgan: «Qancha keksa bo`lsa, shuncha haq, qancha yosh bo`lsa, shuncha qadrli», «Qari bilganni pari bilmaydi», yoshlar bilan kattalar o`rtasidagi munosabatlar barcha xalqlarda deyarli bir hil ifoda etiladi: «Kattalarga joy ber, kichiklarga erdam» (xakas), «Kattalardan o`rgan, kichiklarga o`rgat» (o`zb, chuv, tuva, tatar, qirg`) «esh kelsa ishga, qari kelsa oshga» (o`zb, rus va h.q.).

Maqol qandaydir muayyan holatda-xulosa, boshqa holatda-faraz bo`lib, yangi muammolarni ko`ndalang qo`yadi. Maqolning qiymati uning tub-tubiga kirib borishni talab etuvchi ma`nosini sharhlab berilganda ma`lum bo`ladi. Mulohazalarda, suhbatlarda, bahslarda maqollarni sharhlab berish xalq ichida keng eyilgandi. Bunday sharhlashlar ko`pgina hollarda bir qarashda unchalik bo`lmagan maqollarni ham ta`limiy maqollar sirasiga o`tkazibyoradi. «Hayot dala aylanish emas, uni yashash kerak» maqoli eshlarga qarata aytilgan nasihat, maslahat sifatida talqin qilinadi. «O`qinglar, ammo o`ynab-kulib ham qolinglar. hali ishlaydigan vaqtlar keladi... Hayot dala aylanish emas uni yashash kerak».

Muayyan voqea tavsifiga nisbatan umumiy ta`lim mulohazasi yuritilganda maqollar ayniqsa ko`p ishlatiladi. Bitta yo ikkita o`g`il kamlik qilishi haqida xalq bunday deydi: O`g`ling uchta bo`lsa, qariganingda uchta tayanching bo`ladi, axir».

Xalq dunyoqarashini o`rganish uchun ta`lim o`gitlarining o`zi ayniqsa qimmatlidir. Ular ta`lim ashyolari, bolalar va tarbiya haqidagi bilimlar bilan birgalikda xalq ta`limi tafakkurining negizini tashkil etadi. Bu xalqning o`ziga xos ahloqiy ma`rifiy qoidasi. Bu qoida muhim jihatlarda xalqning o`zi tomonidan obdan o`ylab ko`rilgan: «Bolalarni kaltak bilan emas, yaxshi so`zlar bilan o`qitadi», «Kaltakdan badan qabaradi, haqoratdan yurak», «Bolalarni do`q va kaltak bilan emas, uyaltirish bilan jazolaydi», «O`zingnikini olganingda o`zgalarni ham unutma, o`zingniki istasang-istamasang do`st bo`lib qolaveradi», «yosh aql bahorgi muz parchasi», «Yumshoq saqich muhrga, esh esa ilmga yaxshi», «Aqlsizni o`qitish tagi yo`q ishidga sul quyish bilan teng», «Takrorlash bilimning onasi», «Olim ko`rib turadi, avom izidan boradi», «Musibatda odam dono bo`lib ketadi», «Yaxshi bilan yurgan etar murodga, eomn bilan yurgan qolar uyatga», «Birinchi farzand hammadan ham suyumliroq», «Aql ummonday bepoen, bilim tog`day yuksak», «O`qimishli odam misoli quyosh, savodsiz odam zim-ziyo tun», «eg`ochni namligida eg, bolani vaqtida o`qit», «Emizayotganingda o`g`lingni tarbiyalamasang katta bo`lgach, tarbiyanishga fursati bo`lmaydi», «O`qimagan ahmoq emas, o`qishni istamagan ahmoq», «Keksaga hassa tayanch, yoshga ilm», «Botirlar orasida yashasang, sen ham botir bo`lasan», «Hammamiz odamlarmiz, bitta insonmiz», «Zamona qanday bo`lsa, odamlar ham shunday bo`ladi», «Odamning bahosi odam bilan o`lchanadi. Odam o`zi uchun tug`ilmaydi».

Tarbiya natijasi haqidagi xalq fikri muhim ta`lim ma`nosiga ega. Bu odamlar, ularning shaxsiyati haqidagi mulohazalarni baholovchi fikrlardir: «Qiziqqon odam makkor bo`lmaydi», «emon odam ko`mirga o`xshaydi: kuydirmasa ham qorasi yuqadi», «Pok vijdon Xudoning ko`zi», «Sof vijdon fosh qilishni eqtiradi», «Yurganda maysani bosmaydi» (yuvoshlik haqida),

«Uning faqat qorga bosgan izi tug`ri» (elgonchilar haqida), «Maqtanchoqning gaplari ko`lmak, kamtarniki dengiz», «Ayiqning o`zini ko`rib, izini qidiradi» (bemaqsad odam tug`risida), «elg`on bilan dono bo`lmas, ug`rilik bilan boy bo`lmas», «yoshlarning shijoatini so`ndirgandan ko`ra, eman daraxtini sindirgan oson», «lt qutirsa egasini qopadi», (noinsof odamlar tug`risida yana bir maqol: «Ko`chib bo`lgandan keyin tuya na hojat, daredan so`zib o`tgach, qayiq ha hojat»), «Yaxshi odam yomnlikni eslamas, yomon odam yax`shilikni eslamas» va h.q. Ko`plab ibratomuz maqollar shunisi bilan qiziqqa, aniqliq xossasi ulardagi ish-harakat va amallarga qarab bahlonadi, tarbiya bilan bog`liq holda qaraladi. Ahmoq odamlarni tarbiyalash oson emas: «llon o`zining egriligini bilmaydi: tug`rilasang chaqadi», «Bukrini go`r tuzatadi», «llon po`stini yilda bir almashtiradi, ammo zaharli tishi qolaveradi».

Maqollarga qarab shaxsning ijobiy va salbiy hislatlari odamlar xulq-atvorini bir zaylda yaxshilashni ko`zda tutuvchi tarbiya maqsadi sifatida gavdalanadi. Buning ajoyib tomoni shundaki, barcha xalqlar inson kamolotining cheksizligini tan oladilar. Kishi har qancha komil bo`lmasin, u kamolot sari yana bir qadam tashlaydi. Bu qadam nafaqat odamni, balki bashariyatni taraqqiet sari boshlaydi.

Sharhlovchilar oila va nasablarga quyidagicha mantiqiy baho beradilar: istiqbolsiz nasab, ertasi yo`q oila, shoxbutoqsiz daraxt; ildizsiz daraxt quriydi, elqiz butoq sinishi turgan gap, hassasiz cho`pon-shoxsiz daraxt va hoqazo. Gohi paytlarda yolg`iz bola katta bo`lgach, o`z bolalarini himoyasiz tashlab qo`yishi mumkin, chunki uning yaqin qarindosh urug`lari- ammayu amakilari, jiyanlari bo`lmaydi-da. Ba`zilar savol-javob vaqtida xalq tafakkuri sifatida maqollarga tayanib, bola va nevaralarga o`zlaringdan ko`payib, uvali-juvali bo`linglar deb, dangal istak bildiradilar: Shuning uchun aytaman-da, bitta bola kam deb. «Ota-onaning ta`lim vazifalari sifatida bolalarga muhabbat, ulardan faxrlanish ota bilan ona tug`risida teng bo`linadi»: «Ota qizini yaxshi ko`radi, ug`li bilan g`ururlanadi, ona ug`lini yaxshi ko`radi, qizi bilan faxrlanadi». Maqolda ota va onaning o`z bolalari tarbiyasi uchun mas`ulliklari alohida qayd etilgan, ularning ta`lim vazifalari farqlab berilgan: ayni holda oilada qulay ahloqiy muhitni ko`zda tutuvchi muhabbat, ota-onalar va farzandlar o`rtasidagi samimiy munosabatlar ko`proq tarbiya sharoitlariga tegishli bo`ladi, faxr esa uning natijasigina. yolg`iz farzand-bu faqat ug`il yoki faqat qiz demak, oilada esa ug`illar ham, qizlar ham zarur. Ota ham ona ham na faxrdan, na muhabbatdan bebahra qolmasin, ularning har ikkalasi ham bolalari tarbiyasi bilan bog`liq o`z ahloqiy tuyg`ularidan to`liq qoniqish hosil qilsin.

Maqollarning ko`p ma`noliligi, ularning bir-biri bilan ko`p taraflama va ko`p qirrali aloqadorligini, bir-birlarini to`ldirishini, izohlashini bildiradi. Bu ko`pma`nolilik ma`lum darajada maqollarning yuksak shoironaligi bilan o`zaro bog`langan.

Bolalarni tarbiyalash ishida so`zlari bolalarga hozirda tushunarli bo`lgan maqollardangina foydalanish zarur. Aks holda, ularni qo`llashdagi ta`sirchanlikka putur etadi. Quyida o`qituvchi tarbiya jarayonida foydalanishi mumkin bo`lgan maqollarni keltiramiz.

Vatan haqida

O`zbekiston - Vatanim manim.

eridan ayrilgan etti yil yig`lar,

Yurtidan ayrilgan o`lguncha yig`lar.  
Ona yurtning - oltin beshining.  
Har qancha ko`p bilsang ham  
Xalq sendan ko`proq biladi  
Yigitning burchi - Vatanni qo`riqlash.  
O`z uying - o`lan to`shaging.

Topishmoqlar turli xalqlarda turlicha ataladi. O`zbek tilidagi «topishmoq» so`zining lug`aviy ma`nosi «topmoq» fe`lidan olinganligi ma`lum, ya`ni «topishmoq» top-top o`ynamoqni bildiradi. Bolqorlarda, masalan, topishmoqni «elber» deyishadi. «El» qishloq yo shaharni, «ber» esa bermoq fe`lining buyruq maylini bildiradi. Topishmoq javobini topgan odam mukofotga - shahar yo qishloq «oladi». Kim ko`proq shahar yo qishloqqa ega bo`lsa, o`sha g`olib deb topiladi. O`zbeklarda esa, aksincha, topolmagan odam jarimaga «shahar» beradi. Chuvashlarda topishmoqni «tupmalli yumax», «sutmalli yumax» deyдилar, bu «jumbog`li ertak», «topolmasa sotib yuboriladigan so`z» degan ma`nolarni bildiradi. Sotish - bu eng yoqimsiz ish bo`lib, u kishilar orasida kuyov yoki kelin buyurgan topishmoqni topolmagani uchun belgilangan jazo hisoblanadi. Nima uchun topishmoqni ertak deyishadi. Gap shundaki, ko`pgina topishmoqlar ertak mazmuniga ega bo`lib, o`ziga xos janrdan iborat. Topishmoqni topolmagan odam jarimaga ertak aytib bergan (qo`shiq aytgan, o`yinga tushgan eki boshqa topishmoqni topgan va hoqazo). Bunday evazlar «sotiladigan ertak» deb atalgan.

Topishmoqlar oqilona, shoirona, ahloqiy g`oya bilan sug`orilgan bo`ladi. Binobarin, ular aqlif, estetik va ahloqiy tarbiyaga ta`sir ko`rsatadi. Qadimgi zamonlarda ular, ehtimol, bu vazifa-larni ozmi-ko`pmi bir hil darajada ado etgandir. Biroq keyin-chalik topishmoqlarda aqliy tajriba ustunlik qiladigan bo`lgan.

Topishmoqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni atrof-muhitdagi turli voqea-hodisalar va narsalar ustida mushohada yuritishga o`rgatadi: shu bilan birga bir hil narsa haqida ko`plab topishmoqlarning bo`lishi narsa (hodisa)ga har taraflama endoshishga imkon bergan. Biroq, aqliy tarbiyadagi topishmoqlarning ahamiyati faqat fikrni rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi, ular yana inson hayotining turli sohalari haqida bilim va ta`limotlar bilan aqlni boyitadi.

Aqliy tarbiyada topishmoqlardan foydalanish shu bilan qimmatliki, tabiat va kishilik jamiyati haqidagi ma`lumotlarni bola faol fikrlash jaraenida oladi.

Topishmoqlarda inson haqidagi ma`lumotlar g`oyat rang-barangdir. Bu erda ma`lum tizim mavjud: umuman, odam haqidagi topishmoqlar bor, so`ng odamning alohida tana a`zolari haqidagi topishmoqlar keladi, masalan qorin, bosh, oeq, qo`l va hoqazo. So`ngra yana ham maydalashadi: miya, ko`z, tish, soch, til, barmoqlar, yurak va hoqazo. Shunday qilib topishmoqlar bolani ham mushohada qilishga, ham shuuriga singdirishga o`rgatadi, ham bir butunlikni, ham alohadalikni farqlashga ko`niktiradi.

Odatda narsaning bir qismi haqidagi mustaqil topishmoqlar bir butun narsa haqidagi topishmoqda aytilgan belgilarni takrorlamaydi. Birgina narsaga uning qismlari o`rtasidagi

bog`liqlik nuqtai nazaridan turib yondoshish bolaning ijobiy fikrlashga yordam beradi. Fikr va xotirani rivojlantirish, aqlni bilim bilan boytish topishmoqlarning bosh vazifasidir. Biroq, bu bilan ham cheklanib qolmaydi. Topishmoqlar bola aqlini shaxsning boshqa fazilatlarini shakllanishiga yordam beruvchi bilimlar bilan ham boyitadi. Topishmoq topuvchi bolaning aqli nafaqat aqli, balki yaxshi va go`zal fikrlar bilan ham boyidi, bunda har ikkala holat ham bir biri bilan uzviy bog`liqliqda sodir bo`ladi.

Ko`pgina topishmoqlar bosh yorqin ko`lga, soch siyrak o`rmonga o`xshatiladi. Soch haqidagi gap ketganda odamlar jonajon tabiatning go`zalligi haqida o`ylaydilar, bu haqda shoirona ramzlar bilan yo`g`rilgan, mukammal shaklga ega bo`lgan topishmoqlarni o`z bolalariga aytganlar. Go`zallik haqidagi topishmoqlar bilan xalq muallimlari esh avlodning estetik didini rivojlantirganlar.

Ko`z haqidagi topishmoqlar ham chiroyli va ibratlidir. «oykada bir dum ko`rdim» (chuv) bu hech bir istisnosiz insondagi eng muhim a`zoldan bo`lmish ko`zni asrab-avaylashga da`vat etadi. («Ko`z qorachig`iday asra» degan maqolni eslang). Manglay ham topishmoqlarda go`zal tarannum etiladi: u goh kumush kosaga, goh qo`l ortidagi baland toqqa qies qilinadi... Topishmoqlarda aqli va xushruy odamning belgilari ham g`oyat nazokat bilan tasvirlanadi.

Mehnat, mehnat qurollari, qishloq xhjalik ekinlari, uy hayvonlari, kiyim-kenchak, oziq-ovqat va hoqazolar haqidagi topishmoqlarda mehnat faoliyatining g`oyat rang-barang turlari tavsiflanadi. hatto koinot haqidagi topishmoqlarda ham mehnat qurollari va mehnat mavzusini ko`rish mumkin. Shunisi e`tiborga molkki, ko`pincha topishmoqlarda u yoki bu buyum qismlarga bo`lib qaraladi, bu qismlar, o`z navbatida, mehnat jarayonlarining izchilligi tug`risida hikoya qiladi («Sakson askar, ikki zobit, bir xo`jayin» degan topishmoqda inson mehnatining natijasi sifatida tom epish tug`risida gapiriladi: ustun quyilib, taxta qoqish jarayoni).

Aynan mehnat va mehnat qurollariga daxldor topishmoqlarda ozmuncha zukkolik va hazil bormi «Qirda tentak o`yin tushar» (shamol tegirmoni), «Qaynona pastda, kelin balandda» (qoziq, to`qmoq).

Odamlar, hayot va o`lim, yoshlik va keksalik haqidagi topishmoqlar yoshlarni shaxsiy kamolot sari chorlovchi mazmun bilan yo`ritilgan:

Hohlaysanu sotib olomaysan,  
Kerakmasini sotolmaysan.

Topishmoqlarning she`riy shakli go`zal, fikri teran (yoshlik va keksalik), yoshlarning qadriga etishga chorlash bola uchun bu topishmoq, kattalar uchun esa ibratli maqol. Yana bir topishmoq:

yosh edim -  
Kunday edim,  
Qaridim -  
Tunday bo`ldim.

Bu nafaqat topishmoq, shu bilan birga inson hayoti haqidagi shoirona hikmat emasmi:

Topishmoqlarda she`riy umumlashma ulkan fikriy mehnatni talab qiladi:

Qanoti yo`q - uchadi

Oyog`i yo`q - chopadi

Olovi yo`q - enadi

Yarasi yo`q - og`riydi.

Topish qiyin emas - shamol, bulut, quyosh, yurak. Xotira ham bunda yordam berishi mumkin: bolalar bu topishmoqni boshqa variantida ko`p topishgan, bunday narsalarni qo`shiq va suhbatlarda eshitishgan. (qo`shiqda olovsiz faqat quyosh emas, yurak ham yonadi).

Topishmoqlar shakl jihatdan g`oyat rang-barangdir. Ular ichida yodlab olsa bo`ladiganlari ham bor. yodlab olingan savol-javob topishmoqlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, e`tiqodni shakllantiradi, ular yordamida bolalarni hayotdagi turli g`oyalar, hodisalar bilan tanishtirishning muammoli usuli amalga oshiriladi.

Savol-javob topishmoqlar odamlar hayoti va faoliyatining ko`p tomonlarga daxl qiladi. Ularda xalqning odatlagi tasavvurlari aks etadi. Aqliy tarbiyada bu topishmoqlarning ahamiyati g`oyat yuksak. Ular nafaqat fahmlash va faol fikriy faoliyatni talab etadi, balki ko`proq xotirlashga ham undaydi. Ayrim savol-javob topishmoqlarga javoban bolalar maqollar, qo`shiqlar va ertaklarda uchratadilar. Ertaklardagi javoblar turli variantlardan iborat bo`ladi. Mazmun jihatdan ishonchli va shakl jihatdan shoirona javob eng muvaffiyatlisi hisoblanadi. Masalan «Dunyoda odam uchun eng qimmatli narsa nima» degan topishmoqqa «Vatandan qimmatli narsa bo`lmas» degan javob «Xujayin va uning malayi» degan tarixiy ertakda bor. Qiyoslashdan iborat maqol o`zaro bir-biri bilan bog`liq savol-javob topishmoq uchun asos bo`lib xizmat qiladi (qiyolashning qaysi qismi noma`lum deb qabul qilinishiga qarab, albatta). «Oltin beshik nima» yoki «Ota va ona uyi nima» degan topishmoqqa «Ota va ona uyi oltin beshik» degan maqol javob bo`ladi. Bu maqol ko`pincha qo`shiqlarda ham uchraydi.

Mehnat, mehnat quroli va mehnat faoliyatining natijalariga daxldor savol-javob topishmoqlar g`oyat qiziqarli. «yog`och tik turibdi - ersa bo`ladi, eg`och erda etibdi - chopsa bo`ladi, eg`och o`tiribdi - erilmaydi ham, chopilmaydi ham. Nima qilish kerak» Eng mashhur javob arralash. Gohi savol har bir qatorga quyiladi: «Nima kerak» Javoblar: bolta, pona (eki qoziqcha), arra.

Ba`zan savol-javob topishmoqlarda solishtirish tizimi ko`zga tashlanadi. Masalan, alohida aytilgan «Kalta va ingichka bu nima» degan topishmoqqa aniq javob berish qiyin eki solishtirish noaniq bo`lganidan ko`plab javoblarni qalashtirib tashlash mumkin. To`rtta savol birgalikda to`rtta noma`lum narsasi bo`lgan va hamma tan olgan to`rtta solishtirish tizimi sifatida qabul qilinadi: «Kalta va ingichka - nima. Uzun va ingichka - nima. Kalta va yo`g`on - nima. Uzun va yo`g`on - nima» Javob - chilvir, ip, arqon, dor.

Savol-javob topishmoqlarning qimmatli tomoni yana shundan iboratki, ularning javoblari maqollarning eyilishiga xizmat qilgan va yoshlar hamda o`smirlarning shaxsiy xulosalari sifatida qabul qilingan.

«Dunyoda nimadan qimmatli narsa yo`q» degan savol topishmoqqa «Samimiy do`stdan» degan javob bolaning qat`iyatini ifodalaydi. To`liq javob esa endi maqolga aylanadi. «Odamdagi elg`on nimayu chin nima» Javob yana maqol bilan aytiladi: «Eshitgani - elg`on, ko`rgani – chin».

Odatda muammoli holatni yosh avlod orasida ahloqiy-ma`naviy bilimlarni targib etish uchun foydalaniladigan savol-javob topishmoqlar maqolga aylanadi. Atrof-muhit haqidagi turli tuman bilimlardan tashkil topgan, aql, farosat, xotirani rivojlantiradigan savol-javob topishmoqlar talaygina. O`zbek, qirg`iz, tojik, mo`g`ul xalq og`zaki ijodieti ayniqsa bunga boy: «Avval nima paydo bo`lgan: yorug`likmi e qorong`ulik» Besh nima degani. (Bir marta ko`rganni nega unutish kerak). Besh nima degani (Besh ug`loni bor odam kimdan qo`rqadi) Uch, besh sonlari uchraydigan topishmoqlar, qo`shiq topishmoqlar buryat va unga qardosh xalqlarda saqlanib qolgan. «Dunyoda eng tez uchta narsa nima» degan savol topishmoqqa quyidagi javob aytiladi:

Otganda - o`q tez,

O`ylaganda - o`y tez,

Ko`rganda - ko`z tez.

Topishmoqlardan ishora sifatida foydalanadilar. Bolalar borligida, ta`lim mavzuidagi suhbatlarda kattalar o`z fikrlarini topishmoqlar bilan ifoda etadilar: «Ehtiyot bo`lib gapiringlar, devorning ham qulog`i bor» ya`ni bolalar oldida har qanday gapni ham gapirib bo`lmaydi, bolalar ziyrak bo`ladi, o`zlaricha tushunib, har hil gap-so`zlar kupayib yurmasin, deyilmoqchi.

Topishmoqlar xususida xalqning fikri doim yuqori bo`lib kelgan: «Topishmog`im topaloq, topolmasang shapaloq». Topishmoq topish va uylashni mashq qilish har doim o`ta foydali mashg`ulot sanalgan. Bolalar bilan ishlashdagi ishtiyoqi bilan ajralib turgan jamoa muallimining mahorati aynan topishmoq topish mashg`ulotini tashkil etishda namoyon bo`ladi. Unda turli eshdagi ug`il va qiz bolalar ishtirok etishi mumkin.

Topishmoqlar ongga ta`sir qilishning ko`p taraflama vositasi hisoblanib, maqsadi shaxs kamolotining barcha boshqa jihatlari bilan yaxlitlikda topishmoqlardagi oqil (dono fikrlar, teran va muhim narsa haqidagi ko`plab ma`lumotlar) va go`zallik (topishmoqlarning mukammal badiiy shakllari, inson hayotining va tabiiy hodisalalarning shoironaligi)ning uzviy bog`liqligi sharofati bilan erishilgan. Ayni holda, aql xalq tomonidan maqsad, go`zallik esa vosita deb baholangan. Aynan topishmoqlardagi go`zallik tufayli sog`liq ahloq, mehnat haqidagi fikrlar bu qadar ma`nodorlik kasb etgan. Etnopedagogik mitti asarlar maqol va topishmoqlar xalq haetida katta ahamiyatga ega bo`lib kelgan. Ularning ahamiyati bugungi kunda ham zarracha kamaygani yo`q. Xalq so`zlarni tejab ishlatgan, fikrni saqlash va uzatishdagni samarador vositalarni qadrlagan, ayniqsa nutq lo`ndaligini yuqori baholagan: «Ko`p gap eshakka yuk». Azaldan maqollar haqida ajoyib fikrlar mavjud. Yunonlar va rimliklar uchun maqollar jamiyatning hukmron fikri bo`lgan, italiyaliklar uchun - xalq maktabi, ispanlar uchun - ruh ozig`i, chexlar uchun - ajdodlar donoligi, chuvashlar uchun - keksalar o`giti, Sharq xalqlari uchun - dur shodasidek so`zning husni, o`zbeklar uchun donolik

va ezgulik maktabi hisoblangan. Barcha uchun esa xalq maqol va topishmoqlari xalq hazinasidagi bebaho boylik, deb qaralgan.

Topishmoqlar bolaning xotirasini, fikrlash qobiliyatini, zehn o`tkirligini oshirishga imkon tug`dirgan.

Topishmoqlar bolaga turli narsalarning belgilarini qiyoslashga, ulardagi umumiylikni topishga o`rgatgan va shu bilan birga narsalarni tasnif qilish, ulardagi kerak narsalarni olib tashlash uquvini shakllantirgan. Boshqacha aytganda, topishmoqlar yordamida nazariy, ijodiy tafakkur asoslari shakllangan.

Topishmoqlar bolaning kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Bola qancha kuzatuvchan bo`lsa, u shunchalik tez va tug`ri topadi. Topishmoq topishni o`rgangan bolaga o`zi ham topishmoqlar to`qishini vazifa qilib bersa bo`ladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Буриев О. Семья и новые традиции. Ташкент 1988 г.
2. Зуннунов А. Планы развития педагогической мысли в Урта Азид} Ташкент-2000г.
3. T.Esemiratova, G.Matmuratova, G.Utepova. "Basics of teaching elementary school students based on information and pedagogical technologies". "Journal of innovations in scientific and educational research" 2023 yil VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)
4. T.Esemuratova, G.Matmuratova, S.Omarov. «The use of folk works in the upbringing pupils to moral and intelligence.» Academy 6 (57 (2020: 83-87.